Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Faxriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhrukh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik karakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortojiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darolarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish.....	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darolarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoralievna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH MODELI

Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna

Farg'ona viloyati Pedagogik Mahorat markazi
"Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasini o'qituvchisi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0004-0725-3147

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning formal va noformal shakllari, shuningdek, pedagoglar malakasini oshirish tizimida mavjud muammolar tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim jarayoni ishtirokchilari – o'qituvchilar, talabalar, o'quvchilar va ota-onalarning faol hamkorligiga asoslangan, kreativ rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi integrativ model taklif etiladi. Ushbu model masofaviy muloqot, tyutorlik yordami hamda ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari taklif etilgan model bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida uzluksizlikni ta'minlab, ularning kreativ kompetentligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, kreativ kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilar, masofaviy hamkorlik, tyutorlik, kreativ rivojlanish modeli.

Abstract: This article is devoted to the formation of creative competence among future primary school teachers based on an integrative approach. The study analyzes formal and non-formal forms of creative competence development, as well as existing challenges within the professional development system for teachers. The paper proposes an integrative model aimed at supporting creative development through active collaboration among participants in the educational process, including teachers, students, pupils, and parents. The model is implemented through distance communication, tutoring support, and educational processes oriented toward creative activities. The research findings demonstrate that the proposed model ensures continuity in the professional training of future teachers and significantly enhances their level of creative competence.

Key words: integrative approach, creative competence, future teachers, distance collaboration, tutoring, creative development model.

Аннотация: Статья посвящена вопросам формирования креативной компетентности будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода. В исследовании анализируются формальные и неформальные формы развития креативной компетентности, а также существующие проблемы в системе повышения квалификации педагогов. В статье предлагается интегративная модель, направленная на поддержку креативного развития и основанная на активном взаимодействии участников образовательного процесса – учителей, студентов, обучающихся и родителей. Реализация модели осуществляется посредством дистанционного общения, тьюторского сопровождения и образовательных процессов, ориентированных на творческую деятельность. Результаты исследования свидетельствуют о том, что предложенная модель обеспечивает преемственность профессиональной подготовки будущих учителей и способствует значительному повышению уровня их креативной компетентности.

Ключевые слова: интегративный подход, креативная компетентность, будущие учителя, дистанционное взаимодействие, тьюторство, модель креативного развития.

KIRISH

Ma'lumki, uzluksiz ta'limning asosiy g'oyasi insonning butun hayoti davomida o'z intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat puxta nazariy bilim, balki yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yechimlar topish, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvni tatbiq etish kabi ko'nikmalar ham talab etiladi. Shu bois pedagogik faoliyatda kreativ kompetentlikni shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Kreativ kompetentlik – bu o'qituvchining dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, original g'oyalarni ilgari surish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo'llay olish qobiliyatidir. Biroq pedagogik oliy ta'lim muassasalarida berilayotgan to'rt yillik nazariy tayyorgarlik mazkur kompetentlikni to'liq shakllantirib bera olmaydi. Ushbu jarayon uzluksiz, tizimli va integratsiyalashgan shaklda tashkil etilgandagina samarali bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Integrativ yondashuv turli o'quv fanlari, pedagogik faoliyat shakllari va tarbiyaviy jarayonlarni yagona maqsad – o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan holda uyg'unlashtirishga asoslanadi. Bunday yondashuv o'qituvchini bir yoqlama emas, balki ko'p qirrali, ijodkor hamda moslashuvchan mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan. Xususan, noformal ta'lim shakllari, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish, ijodiy faoliyatga asoslangan pedagogik tajribalar o'qituvchining kreativ salohiyatini kuchaytirishda muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Biroq mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kreativ kompetentlikni tizimli va integratsiyalashgan shaklda shakllantirishga qaratilgan samarali model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi, uzluksiz o'quv jarayoni, noformal o'z-o'zini rivojlantirish, hamkorlik va ijodiy faoliyat tamoyillariga tayanadigan integrativ modelni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, kreativ kompetentlikni takomillashtirishga qaratilgan yangi integrativ modelni taklif etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzluksiz ta'lim va kattalar ta'limi doirasida pedagog shaxsining ijodiy va kasbiy rivojlanishi masalalari bir qator tadqiqotlarda chuqur tahlil qilingan. Xususan, S. G. Vershlovskiy uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarning mustaqil fikrlash, refleksiya va ijodiy faoliyatga tayyorligini rivojlantirish andragogikaning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Muallif pedagogik kompetentlikni uzluksiz va bosqichma-bosqich shakllanuvchi jarayon sifatida talqin qilib, unda integrativ yondashuvning ahamiyatini asoslab beradi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda kreativlik va raqamli kompetentlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. M. S. Tsvetkova va V. M. Kiryuxin o'qituvchining raqamli kompetentligini zamonaviy ta'limda kreativ faoliyatni amalga oshirishning muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, Yang By Jin va Yorozu Rika tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yaponiya, Koreya Respublikasi va Singapur tajribasi asosida integrativ va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitining o'qituvchilar kreativ rivojlanishiga ijobiy ta'siri yoritilgan. Bi Syaofan esa kattalar ta'limida innovatsion va kreativ yondashuvlarni joriy etish pedagoglarning professional moslashuvchanligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

O'zbekiston pedagogika fanida ham bo'lajak o'qituvchilarning kreativ va AKTga oid kompetentligini rivojlantirish masalalari izchil o'rganilmoqda. Z. N. Askarova tadqiqotlarida uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT va kreativ kompetentligini shakllantirish integrativ, fanlararo va hamkorlikka asoslangan yondashuv orqali samarali amalga oshirilishi isbotlangan. Muallif pedagogik modellar, raqamli xizmatlar va masofaviy hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini qayd etadi. Ushbu tadqiqotlar mazkur maqolada taklif etilayotgan integrativ modelning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish integrativ yondashuvga asoslanib, ularning shaxsiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon o'quvchi, talaba va pedagogning faol ishtirokini talab etuvchi uzluksiz o'quv-amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi: kasbga tayyorgarlik oldi bosqichi, kasbiy ta'lim bosqichi hamda kasbdan keyingi rivojlanish bosqichi. Har bir bosqich bo'lajak o'qituvchida kreativ fikrlashni bosqichma-bosqich chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kasbga tayyorgarlik oldi bosqichida talabalarda kasbiy motivatsiya, ijodiy fikrlashga qiziqish va kreativ faoliyat elementlari shakllantiriladi. Ushbu jarayon integrativ topshiriqlar, kuzatishlar hamda kichik loyiha faoliyatlari orqali qo'llab-quvvatlanadi. Kasbiy ta'lim bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish nazariy va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Bu bosqichda ijodiy topshiriqlar, fanlararo integratsiya, loyiha va tadqiqot faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Kasbdan keyingi rivojlanish bosqichida o'qituvchilarning kreativ kompetentligi malaka oshirish kurslari, seminarlar, metodik birlashmalar hamda o'z-o'zini rivojlantirish orqali mustahkamlanadi. Ushbu jarayon pedagogning refleksiyasi, ijodiy dars ishlanmalari hamda tajriba almashinuvi bilan boyitiladi.




Uzluksiz ta'limning institutlashtirilgan (seminarlar, kurslar, rasmiy treninglar) hamda institutlashtirilmagan (o'z-o'zini o'qitish, mustaqil izlanish, kreativ jamoalarda ishtirok etish) shakllari kreativ kompetentlikning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Tyutorlik, mentorlik va masofaviy hamkorlik o'qituvchining ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlashning samarali usullari sifatida qo'llaniladi. Ushbu mexanizmlar o'qituvchining amaliy faoliyatda kreativ yondashuvlarni qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Integrativ metodlar asosida tashkil etilgan hamkorlik modeli o'qituvchi, talaba, o'quvchi va ota-onalar faoliyatini yagona kreativ ta'lim muhiti doirasida birlashtiradi. Bunday integratsiya bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlikning izchil va samarali shakllanishiga zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida talabalar hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentligini integrativ ta'lim modeli asosida rivojlantirish g'oyasi shakllantirildi. Ularning ijodiy fikrlash, noodatiy yondashuvlar ishlab chiqish va ta'lim jarayonida kreativ metodlarni qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, ayniqsa, masofaviy hamkorlik va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan interaktiv shakllar orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Chunki aynan integratsiyalashgan hamkorlik faoliyati bo'lajak o'qituvchilar hamda amaldagi pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun optimal sharoit yaratadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrativ model pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini yagona tizimga birlashtiradi. Model maktabning kreativ ta'lim muhiti doirasida o'qituvchi, talaba, o'quvchi hamda ota-onalar o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslanadi. Bunday hamkorlik o'qituvchining ijodiy salohiyatini faollashtiradi, ta'lim jarayoniga yangi g'oyalarni kiritish imkonini beradi hamda o'quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi.

Mazkur jarayonni konseptual sxema (1-rasm) orqali ifodalash mumkin. Unda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining birgalikda faoliyat yuritishi, fikr almashishi hamda ijodiy loyihalar va sinov topshiriqlarini amalga oshirishi asosida shakllangan integrativ pedagogik muhit tasvirlanadi. Ushbu model yaratgan imkoniyatlar bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini izchil shakllantirishga xizmat qiladi.



1-rasm: Integrativ ta'lim muhiti doirasida ta'lim jarayoni ishtirokchilari hamkorligi orqali pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli

Pedagogik faoliyat davomida o'qituvchi oliy ta'lim muassasasida olgan nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan boyitadi. Ushbu jarayonda kreativ kompetentlikning muhim jihatlari – moslashuvchanlik, noodatiy vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash – yanada mustahkamlanadi.

O'qituvchining kreativ kompetentligi faqat oliy ta'lim bosqichida emas, balki maktabdagi kundalik faoliyat jarayonida ham uzluksiz shakllanib boradi. Bu holat ta'lim metodlarining rivojlanishi, yangi pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lishi hamda ijodiy pedagogik tajribalarning keng yoyilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli kreativ kompetentlikning izchil rivojlanishi zamonaviy o'qituvchining professional universalligini ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish uzluksiz va integrativ ta'lim modeli orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. An'anaviy malaka oshirish tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar – epizodiklik, nazariy yo'nalishga haddan tashqari urg'u berilishi hamda differensial yondashuvning sustligi – kreativ rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan yangi hamkorlik shakllari orqali bartaraf etilishi mumkin. Xususan, masofaviy muloqot, tyutorlik tizimi va ijodiy jamoaviy faoliyat bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Integrativ model ta'lim jarayoni ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba, o'quvchi va ota-onalar – o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslanadi. Ushbu jarayon birgalikdagi ijodiy loyihalar, muammoli vaziyatlarni hal etish, fanlararo integratsiya va pedagogik tajriba almashinuvi orqali o'qituvchilarda kreativ yondashuvni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, uzluksiz ta'limning institutlashtirilgan shakllari (malaka oshirish kurslari, seminarlar, metodik treninglar) hamda institutlashtirilmagan shakllari (o'z-o'zini rivojlantirish, ijodiy guruhlar, masofaviy hamkorlik) birgalikda o'qituvchilarning kasbiy va kreativ rivojlanishini kuchaytiradi.

Ayniqsa, o'z-o'zini ijodiy o'qitish jarayoni pedagogning kreativ tafakkurini mustahkamlab, yangicha metodlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, taklif etilgan modelni amaliyotga joriy etishda ayrim qo'shimcha shart-sharoitlarga ehtiyoj mavjud. Jumladan, ijodiy loyihalar va integrativ mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zarur metodik qo'llanmalar, kreativ trening dasturlari hamda malakali tyutorlar tarmog'i shakllantirilishi zarur. Ushbu resurslar mavjud bo'lgandagina modelning samaradorligi to'liq namoyon bo'ladi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar mazkur modelning amaliy samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida chuqur o'rganishga, kreativ kompetentlik komponentlarini batafsil baholashga hamda turli pedagogik sharoitlarda integrativ modelning moslashuvchanlik darajasini aniqlashga qaratilishi mumkin. Bunday izlanishlar modelni yanada takomillashtirish va uni keng ko'lamda joriy etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari kreativ kompetentlikning uzluksiz ta'lim jarayonida, jumladan, formal va noformal ta'lim shakllari, masofaviy hamkorlik, tyutorlik va ijodiy faoliyat orqali samarali rivojlantirilishini ko'rsatdi. Taklif etilgan integrativ model bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorligida tizimlilik va izchillikni ta'minlab, ularning ijodiy fikrlash, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida integrativ yondashuvga asoslangan kreativ o'quv muhitini keng joriy etish, fanlararo loyihalar va ijodiy topshiriqlar ulushini oshirish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida tyutorlik va masofaviy hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar integrativ modelning amaliy samaradorligini empirik tahlil asosida baholash va uni turli ta'lim sharoitlariga moslashtirish masalalariga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. C. G. Vershlovskiy. Androgogika: o'quv-uslubiy qo'llanma. – SPb.: SPb APPO, 2014. – 148 b.
2. M. S. Tsvetkova, V. M. Kiryukhin. Advanced digital competence of the teacher. Education in the 21st Century, 2019 (elektron resurs).
3. Yang By Jin, Yorozu Rika. Building a Learning Society in Japan, the Republic of Korea and Singapore. – Paris: Publication Series on Lifelong Learning Policies and Strategies. UNESCO Institute for Lifelong Learning, 2015. – № 2. – 29 b.
4. Bi Xiaofang. Promoting innovative learning in training and adult education: a Singapore story. Studies in Continuing Education, 2020. Vol. 43, Issue 2. – 197–198 b.
5. Askarova Z. N. Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT kompetentligini shakllantirish. Maktabgacha va maktab ta'limi (pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal), 2025-yil, yanvar, № 1-son. – 553–556 b.
6. Askarova Z. N. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ pedagogik yondashuvlar asosida AKT vositalaridan samarali foydalanishga tayyorlash. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2024. – 34-son. – 437–440 b.
7. Askarova Z. N., Tojiboyev I. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishini raqamli xizmatlar asosida tashkil etish prinsiplari. "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan–ta'lim–ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2023-yil 22-noyabr. – 264–273 b.
8. Askarova Z. N. The development of future teachers' ICT competencies in managing project activities and in the process of mutual collaboration. Web of Technology: Multidimensional Research Journal, Volume 2, Issue 12, December 2024. – 174–178 pp.
9. Askarova Z. N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik modellar va texnologiyalarni joriy etish. Pedagog respublika ilmiy jurnali, 2024-yil, 7-tom, 11-son. – 334–341 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.